




SUHBAT JARAYONIDA BERILADIGAN NAMUNAVIY SAVOLLAR TO'PLAMI

60730300 – Qurilish muhandisligi ta'lim yo'nalishi bo'yicha

1. Mamlakatimizda qurilish sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish.

1. Binolar va inshootlar ekspluatatsiyasini tashkil etishning asosiy maqsadi nimadan iborat?
2. Qurilish materiallarining zichligi tushunchasiga ta'rif bering.
3. Qurilish ishlarini bajarishda tayyorgarlik bosqichida qanday tashkiliy va texnologik ishlar amalga oshiriladi?
4. Quruvchi-texnikning kasbiy faoliyatining asosiy maqsadi nimadan iborat?
5. Qurilish materiallarining o'rtacha zichligi qanday aniqlanadi va u qanday birliklarda ifodalanadi?
6. QMQ 2.01.03-19 "Zilzilaviy hududlarda qurilish" me'yoriy hujjatining IV bo'limida keltirilgan to'liq nazariyasi bo'yicha hisoblash usullari qaysi me'yoriy hujjatlar asosida ishlab chiqilgan?
7. Pnevmatik va elektr zichlagichlar qanday gruntlar va qanday qurilish sharoitlarida qo'llaniladi?
8. O'zbekiston Respublikasi hududlarini shaharsozlik nuqtai nazaridan rejalashtirish qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?
9. Texnik quruvchi mutaxassisining bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan asosiy talablar nimalardan iborat?
10. Og'ir betonning o'rtacha zichligi qancha bo'ladi va u qaysi omillarga bog'liq?
11. Gruntlarni vibratsiya usulida zichlash texnologiyasining mohiyati va qo'llanilish sohalarini tushuntiring.
12. Maxsus mobil ko'chma sifat laboratoriyasining vazifalari va qurilish jarayonidagi ahamiyati nimadan iborat?
13. Qurilish materiallarining mustahkamligi tushunchasini izohlang.
14. Texnik quruvchining kasbiy faoliyatni amalga oshirish huquqini beruvchi maxsus malaka talablari nimalardan iborat?

15. G'isht terishning asosiy usullari va ularning qo'llanilish sohalarini tavsiflang.
16. Binolar va inshootlarning texnik holatini baholashdan ko'zlangan asosiy maqsad nima?
17. Bino va inshootlarning ishonchliligi tushunchasini izohlang hamda uning asosiy ko'rsatkichlarini keltiring.
18. Materiallarning mustahkamlik chegarasi tushunchasiga ta'rif bering.
19. Shaharsozlik faoliyatiga qo'yiladigan asosiy talablar nimalardan iborat?
20. Qurilish ishlarini bajarish uchun zarur bo'lgan tashkiliy-texnologik hujjatlarni yig'ishda texnik quruvchining mehnat faoliyati nimalarni o'z ichiga oladi?
21. Ishlarni bajarish loyihasini (IBL) ishlab chiqish uchun dastlabki ma'lumotlarni tayyorlashda texnik quruvchining vazifalari nimalardan iborat?
22. G'isht devorlarni ko'ndalang armaturalashda qanday me'yoriy va konstruktiv talablar qo'yiladi?
23. Qumning qurilish materiali sifatidagi fizik-mexanik xususiyatlarini tavsiflang.
24. Binolarning xizmat muddati va haqiqiy yemirilish darajasi tushunchalarini izohlang.
25. Oddiy pishiq g'ishtning standart geometrik o'lchamlari qanday?
26. Ilg'or arxitektura va dizayn tamoyillariga asoslangan, seysmik mustahkamlikni oshiruvchi "kelajak materiallari" ni joriy etish qaysi me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshirilmoqda?
27. G'isht terish ishlarida uchraydigan noqulay ishlab chiqarish sharoitlarini tavsiflang.
28. "Texnik quruvchi" kasb standartiga muvofiq, qurilish uchun zarur hujjatlarni yig'ish hamda ishlarni bajarish loyihasini ishlab chiqish bo'yicha umumlashtirilgan mehnat vazifasi nechta mehnat funksiyasidan iborat?
29. Beton ishlari uchun o'rnatilgan qolip (opalubka) ni qabul qilishda qanday texnik ko'rsatkichlar va talablar tekshiriladi?
30. Texnik quruvchi ishlarni bajarish loyihasini ishlab chiqishda qanday zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va kompyuter dasturlarini bilishi zarur?

2. Bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish)

1. Qurilish ohagining so'nish tezligi qanday usullar bilan aniqlanadi va bu ko'rsatkich qanday baholanadi?

2. Quruvchi-texnik mutaxassisi qaysi turdagi tashkilotlar va korxonalarda kasbiy faoliyat yuritishi mumkin?
3. Qurilish muhandisligi ta'lim yo'nalishini tanlashdan maqsadingiz nima?
4. Qurilish muhandisligi sohasi qaysi yo'nalishlarda qo'llaniladi?
5. Siz tanlagan Qurilish muhandisligi ta'lim yo'nalishining imkoniyatlari haqida ayting.
6. Qurilish muhandislari qanday muammolarni hal qiladilar?
7. Qurilish muhandisi kasbining boshqa kasblardan afzalliklari nimalardan iborat?
8. Qurilish muhandisi mutaxassisligining mohiyati va ahamiyatini tushuntiring.
9. Qurilish muhandisi loyihalash va qurilish jarayonida qanday vazifalarni bajaradi?
10. Zamonaviy qurilish texnologiyalarining mohiyati va afzalliklari nimada?
11. Qurilish muhandisi bino va inshootlarni loyihalashda qanday muammolarni hal qiladi?
12. Qurilish sohasida sifat nazorati va texnik nazorat nima uchun muhim?
13. Qurilish materiallarini ishlab chiqarish va ulardan samarali foydalanish nima uchun iqtisodiy jihatdan foydali hisoblanadi?
14. Yaxshi qurilish muhandisi bo'lish uchun qaysi fanlarni chuqur o'zlashtirish zarur?
15. Zamonaviy qurilish texnologiyalari insonlar hayotini yengillashtiradi deb o'ylaysizmi? Izoh bering.
16. Qurilish loyihalarini tayyorlashda qaysi dasturlardan foydalanasiz yoki bilasiz?
17. Qurilish muhandisi bo'lish uchun oliy ta'limda o'qish qanchalik muhim?
18. Qurilish sohasida zamonaviy axborot texnologiyalaridan qanday foydalaniladi?
19. Qurilish va loyiha tashkilotlari hamda yirik qurilish kompaniyalari haqida nimalarni bilasiz?
20. Qurilish muhandisligi bo'yicha o'qituvchilik kasbining boshqa kasblardan ustun tomonlari nimalardan iborat?
21. Qurilish sohasining mamlakatimiz iqtisodiyoti va infratuzilmasini rivojlantirishdagi o'rni qanday?
22. Qurilish hujjatlarini tayyorlashda qaysi Office dasturlari bilan ishlagansiz?
23. Qurilish muhandisi bo'lib yetishishda chet tillarini bilishning ahamiyati qanday?
24. Qurilishda foydalaniladigan zamonaviy texnika, uskunalar va dasturiy vositalar haqida nimalarni bilasiz?

25. Respublikamizda qurilish sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar haqida ayting.
26. Siz tanlagan Qurilish muhandisligi ta'lim yo'nalishining kelajagi va istiqbollari haqida fikringizni bildiring.

3. Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari)

1. Qurilish muhandisi kasbi insonga qanday mas'uliyat yuklaydi?
2. Yaxshi qurilish muhandisi qanday shaxsiy va kasbiy fazilatlarga ega bo'lishi kerak?
3. Qurilish muhandisi bo'lish uchun qanday nazariy va amaliy bilimlarni egallash zarur?
4. Qurilish loyihalarida mas'uliyat, bilim, tajriba, jamoa bilan maslahatlashish va murosaga kelishning qaysi biri muhimroq deb hisoblaysiz? Nima uchun?
5. Qurilish sohasida mustaqil qaror qabul qilish har doim to'g'ri yechim bo'ladimi? Fikringizni izohlang.
6. Zamonaviy qurilish sohasida axborot texnologiyalari va internetning o'rni qanday?
7. Sizningcha, zamonaviy qurilish texnologiyalaridan foydalanish qurilish sifati va iqtisodiy samaradorlikka qanday ta'sir ko'rsatadi?
8. Shu kungacha qurilish yoki muhandislik yo'nalishida qanday yutuqlarga erishgansiz?
9. Qurilish loyihasini bajarishda jamoa bilan maslahatlashishning ahamiyati nimada?
10. Sizningcha, qurilish loyihalarining muvaffaqiyatsiz yakunlanishiga qanday omillar sabab bo'ladi?
11. Besh yildan keyin o'zingizni qanday qurilish mutaxassisi sifatida tasavvur qilasiz?
12. Qurilish sohasida ilk amaliy tajribangiz yoki birinchi daromadingiz haqida gapirib bering.
13. Qurilish muhandisi faoliyatida eng muhim qadriyat yoki tamoyil nima deb o'ylaysiz?
14. Nima uchun bugungi kunda qurilish muhandislari uchun chet tillarini bilish muhim? Siz qaysi tilni o'rganmoqdasiz?
15. Kelajakda qurilish sohasida qanday yangilik yoki o'zgarishlarni amalga oshirishni xohlaysiz?
16. Qurilish muhandisligi kasbini tanlashda nimalarga e'tibor qaratish kerak?

17. Qurilish muhandisligi yo'nalishida raqamli texnologiyalar (BIM, AutoCAD, Revit va boshqalar)ning ahamiyati qanday?
18. Qurilish obyektlarida mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish nima uchun muhim?
19. Qurilish muhandisi bo'lib yetishishda oila, ustoz va ta'lim muassasasining o'rni qanday?
20. Yoshlarni qurilish va muhandislik sohalariga jalb etish bo'yicha davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar haqida nimalarni bilasiz?

4. Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi:

1. Qurilish muhandisligi ta'lim yo'nalishining asosiy maqsadi nimadan iborat?
2. Qurilish muhandisining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Bino va inshoot tushunchalari o'rtasidagi farqni tushuntiring.
4. Qurilish obyektlarini loyihalashning asosiy bosqichlarini sanab bering.
5. Qurilishda qo'llaniladigan asosiy qurilish materiallarini ayting.
6. Beton va temirbetonning xossalari hamda qo'llanilish sohalarini tushuntiring.
7. Poydevorning vazifasi va uning turlarini izohlang.
8. Qurilish konstruksiyasi deganda nimani tushunasiz?
9. Qurilishda yuk ko'taruvchi va to'suvchi konstruksiyalar qanday farqlanadi?
10. Geodezik ishlarning qurilishdagi ahamiyati nimada?
11. Qurilish maydonida mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalariga nima uchun amal qilinadi?
12. Qurilish materiallarini tanlashda qanday omillar hisobga olinadi?
13. Smeta hujjati nima va u qanday maqsadda tuziladi?
14. Energiya tejamkor binolar deganda nimani tushunasiz?
15. Qurilishda ekologik talablar va barqaror rivojlanish tamoyillarining ahamiyati qanday?

Texnika fakulteti dekani



S. Madaminov